

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD. 03/2025. 27.12.Ped.08.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KAMILOVA GULMIRA ALIMOVNA

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA PAREMIK JANRLAR
VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING
DIDAKTIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of the doctor of science (DSc)

Kamilova Gulmira Alimovna

Maqtabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish.....5

Камилова Гулмира Алимовна

Совершенство дидактической системы развития экологической культуры у дошкольников средствами паремических жанров29

Kamilova Gulmira Alimovna

Improvement of the didactic system of development of ecological culture in preschool children through the means of paremic genres57

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchani shakllantirish, paremik janrlardan foydalanishning didaktik modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Johannesburgning 2020 - yildagi “Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan Butunjahon sammiti”da tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik tizimini shakllantirish, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart - sharoitlarni inobatga olgan holda, ekologik vaziyatni mahalliy, milliy va global darajada yaxshilash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada Yaponiyada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish va ijodiy potensialini oshirishda “Kokoro» ta’lim g‘oyasi, Koreya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Rossiya davlatlarida ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilganligi alohida qayd etildi.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchani shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik jarayonni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, kichkintoylarning qiziqish va ehtiyojlari, turli yosh xususiyatiga mos imkoniyatlariga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining asosiy poydevori sifatida ekologik madaniyatni shakllantirish muammosini hal qilishda uning boy tarixiy ildizlaridan foydalanish metodikalarini takomillashtirish, ekologik ta’lim metodlarini transformatsiyalash, maktabgacha ta’limga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni tabiat bilan tanishtirish mazmuni, usul va shakllari hamda metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim va tasavvurlarni paremik janrlardan foydalanish vositasida kengaytirish, maktabgacha ta’lim mazmuni, shakl va vositalarini optimallashtirish, pedagogik jarayonni tashkil etishning me‘yoriy asoslari yaratildi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda “bolalarga ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan¹. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu masala davlatimiz Rahbari Sh.Mirziyoyev asarlarida, hukumat tomonidan chiqarilgan qaror va farmonlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof - muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son farmonida so‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида.2019 йил 16 декабрь, ЎРК-595-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон.

ta'minlash, chiqindilarning inson sog'ligiga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayotgani ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 217-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'lajallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'RQ-595-sonli Qonuni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312 "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son qarori, 2024-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida" PF-152-sonli Farmoni, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrda "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma - bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustda 531-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 18-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida"gi 848-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20 - dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi 867-son qarori, 2026-yil 5 - fevralda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 19- son farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchani shakllantirish bo'yicha

jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'limda ilmiy tadqiqotlar jumladan, Universitéde Montpellier (Fransiya), University of Western Sydney (Avstraliya), The Environmental Studies Program at the University of Nebraska - Lincoln (AQSh), North American Association for Environmental Education NAAEE (Shimoliy Amerika), Conference under the banner of "Environment and development" Rio de Janeiro (Braziliya), Pädagogische Hochschule Karlsruhe Bismarckstraße (Germaniya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida (Rossiya) olib borilmoqda.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ijobiy natijalarga erishilgan. Maktabgacha ta'lim pedagoglarini bolalarning tabiat bilan tanishtirish jarayonlarining olib borish metodikasi takomillashtirilgan innovatsion pedagogik ta'sir asosida bolalarni butun olam bilan tanishtirish amaliyotga tatbiq etilgan (Pädagogische Hochschule Karlsruhe Bismarckstraße); (North American Association for Environmental Education University of Colorado); kichik yoshdagi bolalarda ekologik bilimlar integratsion mashg'ulotlar o'tkazish asosida shakllantirilgan. (University of Western Sydney); atrof-muhit ta'limini dasturiy mahsulotlar vositasida targ'ib qilish (North American Association for Environmental Education NAAEE); maktabgacha yosh davrida ekologiya haqidagi ma'lumotlar kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirilgan. (The Environmental Studies Program at the University of Nebraska-Lincoln); atrof olam haqidagi tasavvurlar kommunikativ - dialog aks ettiruvchi qobiliyatlarni rivojlantirish asosida shakllantirilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti).

Turkiyada maktabgacha ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish folklor namunalari, bolalar og'zaki ijodi hamda barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda ekologik tarbiyaning mazmuni bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, ekologik tushunchalarni ongli o'zlashtirish va ekologik qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan (Gazi universiteti; Ankara universiteti).

Qozog'istonda ekologik tarbiyani etnopedagogik yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi va an'anaviy tarbiya vositalaridan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligi asoslab berilgan. Xususan, maqol va matallar yordamida bolalarda tabiat hodisalarini anglash, ekologik xulq-atvor elementlarini rivojlantirish va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni qaror toptirish imkoniyatlari aniqlangan (Abay nomidagi Qozog'iston milliy pedagogika universiteti).

Qirg'izistonda xalq donishmandligi, milliy og'zaki ijod va an'anaviy tarbiya tajribasiga tayangan holda bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish hamda tabiatga ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarda paremik janrlarning tarbiyaviy imkoniyatlari ekologik

ongni shakllantirish vositasi sifatida asoslab berilgan (I. Arabaev nomidagi Qirg‘iz davlat universiteti).

O‘zbekistonda esa bolalarda ekologik tushunchalarni xalq og‘zaki ijodi asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan metodika takomillashtirilib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgan. Mazkur izlanishlarda paremik janrlar orqali bolalarda tabiatga mehr-muhabbat, ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta‘lim - tarbiya berish va intellektual, ma‘naviy-ruhiy, estetik, jismoniy rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta‘lim - tarbiya berish va intellektual, ma‘naviy-ruhiy, estetik, jismoniy rivojlantirish masalalari F.R.Qodirova, D.A.Abdurahimova, T.L.Xurvaliyeva, M.A.Abdullayeva, Sh.K.Xo‘jamberdiyeva, N.Qo‘chqorova, Z.F.Azizova, G.A.Berdaliyeva, D.R.Babayeva, X.I.Qosimova, M.X.Umarova, ekologik ta‘limning metodik jihatlari E.O.Turdiqulov, P.A.Yusupovalar izlanish olib borilgan.

MDH mamlakatlari oloimlaridan G.Spenser, M.N.Bratuxina, N.Avinogradova, L.M.Volobyeva, Y.N.Kiryanova, E.F.Kozina, A.A.Kokoren, V.S.Lednev, A.M.Novikov, O.N.Pishuxina, V.A.Slastenin, O.V.Tixomirovalar tabiat bilan tanishtirish metodikasi borasidagi muammolar va ularning yechimi, ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasining xususiyatlarini tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarga ekologik ta‘lim berish mazmunini takomillashtirish N.Alexiadou & U.Altmann, Driscoll M., R.Fisher, M.Ferreira, R.Kramer & M.Montesori, Falkiewicz-Szultlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Buxoro davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq, “Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish yo‘llari” (2022-2025-y.y.) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paremik janrlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning metodik holatini o‘rganish, tahlil qilish va pedagogik jihatlarni aniqlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarni paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishga doir asosiy yondashuv va tamoyillarni aniqlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish mazmunining tabiat bilan tanishtirishga oid mashg‘ulotlarga bog‘liqligini asoslash, ularni o‘rganish darajalarini belgilash;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishda tabiatga oid mashg'ulotlarning sutrukturasini ishlab chiqish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish shaxsga yo'naltirilgan o'quv motevatsiyasini faollashtirishga imkon beruvchi metodikani takomillashtirish;

Tadqiqotning obykti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlari uchun Buxoro, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan 427 nafar bolalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, usul va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir tarixiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ilg'or tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlari tabiiy savodxonligiga erishishning nazariy va amaliy darajasi o'rtasidagi sinergiyaning maqbulligini qat'iy belgilash konsepsiyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni o'qitish modeli (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya)ning taktik bilimlarni optimallashtirish bilan bog'liq yondashuvlar va funksional, tabiiy savodxonlik qoidalarning maqbulligiga erishish tamoyillarining validligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish mazmuni tabiat hodisalarini kuzatish, eslash orqali ularni faollashtirish maqsadida bajariladigan o'quv-bilish faoliyatini yakuniy bosqich sifatida amalga oshirishga doir mantiqiy-strukturani loyihalash asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida ekologik tushunchalarni o'rganishning metodik tuzilmasi tabiiy fanlar savodxonligi qay darajada o'zlashtirilishi, tahliliy jarayonlar asosida mustaqil fikrlashga erishish kabi didaktik parametrlarning identifikatsiyasi produktivligiga erishish orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish metodikasi bilimlarni to'liq o'zlashtirish, kommunikativ ko'nikma va malakalar, amaliy til tajribasi bilan bog'liq uch bosqichli metodik algoritmi ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik ekologik tushunchalarni shakllantirish pedagogik - psixologik muammo ekanligi asoslangan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni tizimlashtirilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni tarbiyachilar va keng jamoatchilik uchun axborot resursi (Telegram-bot kanalida) tashkil etish va “Tabiat va biz” mualliflik dasturi asosida boyitilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmalari seriyasi ishlab chiqilgan;

“Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida ekologik madaniyatni shakllantirish” mavzusidagi monografiya maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy - pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba - sinovga jalb etilgan bolalarning soni talab darajasida ekanligi, tajriba - sinov natijalarini asoslashda statistik ma’lumotlarga tayanilganligi va matematik qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlarning muammo mazmuniga mosligi; xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani va olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati taklif etilayotgan tavsiyalar bolalarni maktabda kompleks tarzda samarali tayyorlashda foydalanilgani, tadqiqot natijasida maktabgacha pedagogika fani zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga oid ilmiy - pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar bilan boyitilgani, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shakl, metod va texnologiyalarni maqsadli tanlash hamda takomillashtirishga oid ilmiy - metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliyotga joriy etilgan tavsiyalardan maktabgacha oliy ta’lim yo‘nalishidagi o‘quv mashg‘ulotlari, maktabgacha ta’lim sifat va samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan loyihalar, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar va pedagoglar malakasini oshirish kurslari o‘quv modullari mazmunini takomillashtirishda, boyitishda, o‘quv qo‘llanma, ma’ruza matnlari, maxsus kurslar mazmuni ishlab chiqishda nazariy metodik, oilalar uchun konsultativ manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlar orqali amaliyotga tatbiq qilingan:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlar orqali

amaliyotga tatbiq qilingan: maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar (maqollar, matallar, topishmoqlar) vositasida ekologik tushunchalarni (tabiatga ehtiyotkor munosabat, atrof-muhitni asrash, tirik va jonsiz tabiat haqidagi dastlabki bilimlar) shakllantirish muammosining pedagogik va metodik imkoniyatlari integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan PZ-202005236 “Oila psixologiyasi fanidan multimediyaga mahsulotini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 27 martdagi 01-04/1406-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, 3-7 yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish bo’yisha ta’lim-tarbiyaviy jarayonni aniq indikatorli mezonlar asosida tashkil qilish imkoniyatlari kengaytirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishga oid pedagogik jarayon (o’yin, mashg’ulot va erkin faoliyatlar integratsiyasi) o’rganilib, uning samarali omillari va tamoyillari (faollik, ko’rgazmalilik, izchillik, takroriylik, bolalarning mustaqil fikrlashini qo’llab-quvvatlash) metodik amaliyotga joriy etilgan. (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 06 fevraldagi 03-03/1-72-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bolalarda sohaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish bo’yisha markazlarda tarbiyachi va bolalar o’rtasidagi hamkorlikni maqsadli tashkil etishga hamda metodik jihatdan ta’minlashga erishilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar (maqollar, matallar, topishmoqlar) vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmi ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakli, metod va vositalari uzviy integratsiyalashgan holda hamda ekologik tushunchalarni shakllantirish texnologiyalari erkin faoliyatlarni uyg’unlashtirish va shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlarni variativ dasturlarga implementatsiyalash asosida ishlab shiqilgan tavsiyalar “Maktabgacha ta’limda innovatsion faoliyat ” nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish orqali fuqarolik burshi shakllanishiga erishilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish modeli — maqsad, mazmun, jarayon va natija komponentlarining pedagogik jarayon bilan uzviy integratsiyasi, interaktiv metodlarni vizuallashtirish hamda modelni amalga oshirish bosqichlarida (tayyorgarlik, asosiy faoliyat, yakuniy refleksiya) metodik parametrlarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan ishlanmalar maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etilgan. (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 06-fevraldagi 03-03/1-72-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushuncha shakllangan, maktab ta’limiga kompleks tayyor bola shaxsi tarbiyalanishiga erishilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish metodikasi “Badiiy-ekologik modellashtirish” va “Eko-interpretatsiya” kabi innovatsion metodlar, hamda “ Tabiat zanjiri ”, “Sehrgar” kabi tizimlashtirilgan didaktik o‘yinlar majmuasini integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda frontal va jamoaviy qo‘llashga oid takliflar “Bolalarni maktabga tayyorlash” (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son nashr ruxsatnomasi) nomli darslik mazmuniga singdirilgan. Natijada, bolalarda ekologik tushunchalar shakllantirishga oid tizimli o‘quv topshiriqlaridan oila, ta’lim muassasalarida foydalanish imkoniyati kengaytirilgan va metodik jihatdan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy - amaliy konferensiyalarida hamda Buxoro viloyat “Istiqlol - TV” MChJ telekanali tomonidan efirga uzatilgan ko‘rsatuvda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 37 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta, xorijiy jurnalda 10 ta maqola, 1 ta darslik, 1 ta monografiya, 2 ta hammualliflikda uslubiy qo‘llanma, 1 ta hammualliflikda uslubiy tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, 261 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan hamda natijalarning ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, mazkur bobda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janr vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirish muammosining pedagogik va metodik adabiyotlarda o‘rganilishi, bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishning asosiy vositalari hamda ekologik tushunchalarni shakllantirish muammosining amaliyotdagi holati haqida ilmiy nazariyalar bayon etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishga doir ma’lum vazifalarni bajarish tarbiyachi va pedagoglar zimmasiga yuklatilgan. u borada paremik janrlar - bolalarda ekologik

tushunchalarni shakllantirish va ekologik vazifalarni hal etishda yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun tegishli shart - sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy usullarni joriy etish eng muhim vazifalardan sanalmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof - muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, ayniqsa bu vazifani paremik janrlar vositasida amalga oshirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida paremik janr namunalari hisoblanmish topishmoq, ertak va maqollardan faqatgina bolalar nutqini o'stirishga qaratilgan faoliyatlar tashkil etilayotganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni paremik janr namunalari bilan tanishtirish muammolarini hal qilishning pedagogik ehtiyojlari tarbiyalanuvchilarning mazkur namunalardan orqali atrofdagi olamga, tabiatga va ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tizimni yaratish hamda uni mazmunan to'g'ri boyitishga zarurat sezilmoqda.

Bolalar dunyoqarashini, og'zaki nutq va ekologik madaniyatni rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri ekanligi atroflicha yoritilgan. Paremik janrlar vositalari topishmoq, ertak va maqollar mazmuni bolani har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, aqlini charxlaydi, ona tabiatdagi o'zgarishlar, tabiat hodisalarini bir - biridan farqlay oladi, kattalar mehnati, atrof muhit tozaligini qadrlashga o'rganadi, eng muhimi ekologik madaniyat shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlariga hamda kognitiv va nutqiy darajalariga moslashuvchan Science-taym ta'lim shakllari, xalq og'zaki ijodi, urf - odatlar, milliy qadriyatlarga ustuvorlik berish asosida takomillashtiriladi.

Tanlangan muammo yechimini topishga qaratilgan pedagogik - psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil etish natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlariga hamda kognitiv va nutqiy darajalariga moslashuvchan Science - taym ta'lim shakllari, xalq og'zaki ijodi, urf - odatlar, milliy qadriyatlarga ustuvorlik berish, paremik janrlar topishmoq, ertak va maqol bilan tanishtirish jarayonini yoritishda mavzuga doir asosiy tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglab olish, tadqiqot yo'nalishini aniq belgilab olish imkonini beradi. Shu sababli tadqiqot ishida "ekologiya", "ekologik tushuncha", "ekologik ong", "topishmoq", "ertak", "maqol" kabi tushunchalar mazmunini yoritib berishga harakat qilamiz.

Tadqiqotda paremik janrlar namunalari bilan tanishtirish jarayoni pedagogik - psixologik tizim sifatida quyidagicha ifodalandi:


- maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishning bosqichli tizimi yaxlitlik kasb etib, o'zaro bir - biriga bog'liq va aloqador komponentlar bilan tavsiflanadi;

- paremik janrlar bilan tanishtirish pedagogik jarayon bo'lib, bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajarishni o'zida ifoda etadi;

- tarbiyalanuvchilarning bilish jarayonining rivojlanishi - tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat sohasida pedagogik munosabatlar, tarbiya maqsadlari va talablari bilan belgilanadi.

Topishmoq, ertak va maqollar maktabgacha yoshdagi bolaning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga, rivojlanganlik darajasiga, imkoniyatlariga mos kelishi kerakligi ilmiy asoslab berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi - pedagoglari faoliyatning qaysi turidan foydalanishidan qat'iy nazar tarbiyalanuvchilarda bilishga oid jarayonlarni rivojlantirishi lozim. Bu o'z o'rnida bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshiribgina qolmasdan, ma'lumotlarni o'zlashtirib olishlari uchun imkon yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni tuzilmasini quyidagicha tuzdik. (1-rasmga qarang)



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni tuzilmasi

Paremik janr namunalarini o'rganishda bilish psixik jarayonlar xotira, diqqat, nutq asosiy vazifani o'taydi. Shu o'rinda bolalarning paremik janrlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoji, imkoni va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'limiy markazlarda ishlash imkoni yaratib berilishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janr namunalari asosida ekologik tushunchalarni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlari, bolalarning individual xususiyatlariga hamda kognitiv va nutqiy darajalariga moslashuvchan Science - taym ta'lim shakllari, xalq og'zaki ijodi, urf - odatlar, milliy qadriyatlarga ustuvorlik berish asosida, pedagog - tarbiyachilarning ushbu jarayonni metodik, pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi natijasida qator ijobiy sifatlar shakllanadi:

- bolalarning tabiat olamiga qiziqishlarining ortib borganligi;
- paremik janrlar namunalari idrok etish va anglab yetish;
- tabiat mavzusida ta'limiy o'yinlarni tashkil etish;
- tabiatni asrab avaylashga oid tadbirlarda bolalar faolligini ta'minlash. (2-rasmga qarang)



2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qib va hikoya qilinadigan paremik janrlarning guruhlar bo'yicha taqsimoti.

Bularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar orqali ekologik madaniyat, ekologik ong, iqtisodiy bilim asoslarini va pedagogik, psixologik ma'lumotlarni rivojlantirishga erishiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Fan va tabiat" yoki "San'at" markazida paremik janrlardagi tabiat haqidagi topishmoq, ertak, maqol, aforizmlar bilan tanishtirish va ularning mazmunini anglatish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Standartda turli guruh tarbiyalanuvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik manbalari, davlat dasturlari, davlat talablari turli faoliyatlarda tavsiflab berilgan. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni rivojlantirish ahamiyatiga ega ekanligi kutilayotgan natijalar-indikatorlarda ham o'z aksini topgan.

Tarbiyalanuvchilarda tabiatga qiziqish uyg'otish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Tabiat va biz" tajriba xonasini tashkil etish va paremik janrlardan unumli foydalanish quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

- tajriba xonasi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotidagi biror bir bo'sh xona yoki imkoniyatdan kelib chiqib fayeda maxsus burchakni hozirlash mumkin;

- xonani tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlar bilan bezash, akvariumda baliqchalar, tosh, qum, suv, paremik janrlardan namunalar, tajribalar uchun rangli bo'yoqlar va kerakli jihozlar, globus, lupa, stol va stullar... bilan jixozlash;

-xonaga yorug'lik chap tomondan tushib turishi lozim;

- tajriba o'tkaziladigan xona shinam va keng bo'lishi lozim ;

- tajriba uchun ishlatiladigan jihozlarning xavfsizligiga e'tibor qaratish;

- tajribada bola sog'ligiga ta'sir ko'rsatuvchi jihozlardan foydalanmaslikka rioya qilish;

- tajribadan olingan natijalar saqlab qolinishiga e'tiborni qara- tajribalar o'tkazishda bolalar yoshini inobatga olish lozim. Biz amaliyotdagi mavjud metodik manbalarni o'rganib tahlil qilganimizda guruhlar kesimida paremik janrlar quyidagicha ekanligi aniqlandi (2-rasmra qarang

- tajribadan olingan natijalar saqlab qolinishiga e'tiborni qara- tajribalar o'tkazishda bolalar yoshini inobatga olish lozim. Biz amaliyotdagi mavjud metodik manbalarni o'rganib tahlil qilganimizda guruhlar kesimida paremik janrlar quyidagicha ekanligi aniqlandi (2-rasmra qarang).

Tabiat va atrof-olam haqidagi topishmoq, ertak va maqollardan yetarlicha foydalanilmagan. Bular shunchaki, bolalarni qiziqtirish va ayrim ma'lumotlar berish bilan cheklanib qolgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning amaliy ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish omillari va tamoyillari, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirish komponentlari xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanshtirish, ekologik tushunchalarni shakllantirish bilan bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagiga ega bo'lishdir. Tarbiyalanuvchilarning “ Fan va tabiat ” markazidagi mehnati hamda o'simlik va hayvonlarni kuzatishlari butun yil davomida quyidagicha (qish, kuz, bahor, yoz) tashkil etiladi.

“Fan va tabiat ” markazida tarbiyalanuvchilarning diqqatini xona gullariga, ularning o'ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning anchagina chuqur, mustahkam bilimga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Bevosita tabiatda bolalar uchratadigan hayvonlar va o'simliklarning xilma-xilligi hayvon hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniylikni ajratib ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan ob'ektlar bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkonini beradi.

“Fan va tabiat” markazidagi o'simlik va hayvonlarni tanlashda bir qator talablarni nazarda tutish lozim. Bular quyidagilar:

1. O'simlik yoki hayvon mulyajlari bo'lishi lozim. Bunday holda bolalarni o'simlik va hayvonlarning katta guruhi uchun xarakterli bo'lgan asosiy o'ziga xos

belgilari, yashash sharoiti yoki tarzlari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi.

2. “ Fan va tabiat ” markazida yashovchilarni parvarish qilish, mehnatning sifati, xarakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtga ko‘ra maktabgacha yoshdagi bolalarning qo‘lidan keladigan bo‘lishi lozim. Shuning uchun “ beozor ” o‘simliklar va ovqat tanlamaydigan hayvonlar tanlanadi.

3. “Fan va tabiat ” markazidagi hayvon va o‘simliklar tashqi ko‘rinishidan yorqin, jozibador, maktabgacha yoshdagi bolaning hali unchalik barqaror bo‘lmagan diqqatini o‘ziga jalb qilib tura oladigan bo‘lishi kerak.

4. Bir turdagi o‘simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo‘lishi lozim, bolalar kuzatish ob‘ektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki o‘ziga xos belgilarni ham ko‘ra oladilar, bu bolalarni tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda takrorlanmasligini anglashlariga olib keladi.

5. O‘simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo‘lishi, bolalarning sog‘liklariga hech qanday zarar yetkazmasligi lozim.

6. O‘simlik va hayvonlarning maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi hayot faoliyati, o‘sishi va rivojlanishida, binoning doimiy haroratini, quruqligi, shovqin suronning mavjudligini hisobga olish kerak.

O‘simliklarni “ Fan va tabiat ” markaziga joylashtirishda, birinchi navbatda, ularning biologik xususiyatlari hamda extiyojlari nazarda tutilishiga e‘tibor berish lozim. Masalan, ba‘zi xona o‘simliklari quyosh nurining ko‘proq bo‘lishini talab qiladilar, shuning uchun ularni yorug‘ joyga qo‘yish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati qanchalik rang-barang bo‘lsa, uning uchun tevarak-atrofnı bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari shunchalik ko‘p bo‘ladi. Barcha faoliyat turlarida bola atrofıdagi kishilar bilan muomalada bo‘ladi, ular yordamida bilim va malakalar hosil qiladi, muayyan munosabatlarni o‘zlashtirib oladi. Shunga muvofiq ravishda ekologik tushunchalarni shakllatirishga qaratilgan pedagogik ta‘sir samaradorligi kuchaytiriladi. Atrofıdagi borliq, kishilar, predmetlar, tabiat, ijtimoiy hodisalar bolalarga ekologik tarbiya berish omillari bo‘lib sanaladi. Atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish natijasida bolaning ongi, bilim darajasi kengayadi, uning bilish jarayonlari rivojlanadi.

Tadqiqotimiz davomida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilim va malakalarni qabul qilishga oid ekologik tushunchalarni shakllantirish bosqichlari belgilab olindi.


Birinchi bosqich-shu bilan tavsiflanadiki, bolalar tarbiyachining tushuntirishlarini tinglaydi, sayr va ekskursiyalar, ta‘limiy markazlarda faol ishtirok etadilar, va unga amal qilishga harakat qiladi. Olingan ma‘lumotlarni bolalar ongli qabul qiladilar. Bunda tabiat va ekologiyaga oid ma‘lumotlar shakllanib bo‘lgan bo‘ladi. Topishmoq, ertak va maqollarni ma‘nosini anglab yetadilar. Tabiat ne‘matlarini asrashni tushunib yetadilar.

Ikkinchi bosqich- bunda bolalar biror narsaga o‘rgatilishi va ma‘lumot berilishi mumkin bo‘lib, ular ko‘rsatmalarga amal qiladilar, topshiriqlarni bajarishda bir-birlariga taqlid qilishga moyil bo‘ladilar, o‘z natijalarini boshqalar natijasi bilan taqqoslab o‘z-o‘zlarini tekshiradilar. Tabiatga oid tajribalarda ishtirok etishda xohish

va istaklari paydo bo‘ladi.

Uchinchi bosqich-bunda bola mashg‘ulotlar va tajribalarda tashqi ko‘rinishdagi umumiy intizomlilik bilan tavsiflanadi, tavsiyalarga quloq soladilar. Topishmoq javobini topishga intiladi. Ertaklarni mazmunan anglab oladilar. Maqollarni mazmunini tushunib yetishga intilish paydo bo‘la boshlaydi.

Yuqoridagilar asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlantirishning didaktik tizimi quyidagicha tuzildi.(2- rasmga qarang).



2-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhida bolalar ayrim hodisalar o‘rtasida bog‘liqliklarni aniqlashga, qonuniyatlarni bilib olishga o‘rganadilar. Fan va tabiat markazida o‘simliklar va hayvonlar to‘g‘risida, hayvonlarni parvarish qilish haqidagi ma‘lumotlar kengayadi. Bolalarning tabiat markazida ishlash mustaqilligi ortadi ular eslatmasa ham sug‘orish va tuproqni yumshatish kerakligini, o‘simliklarni ekish, polizga, gulzorga, qishda esa tabiat burchagiga urug‘ sepish zarurligini anglaydilar. Tabiat markazida doimo piyoz va boshqa o‘simliklar, ko‘katlar yetishtiriladi. Tajribalar natijasida bolalar qalamcha yo‘li bilan o‘simliklarni ko‘paytirish, ko‘chat yetishtirib keyinchalik uni yerga o‘tqazish usullarini bilib oladilar.

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari**” deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishda integratsion yondashuvdan foydalanish mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarni shakllantirishning shakl, metod va texnologiyalari hamda ekologik tushunchalarni shakllantirish modeli keltirilgan.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari faoliyatini integratsiyalash, mashg‘ulotlarning mazmunini boyitish bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish shart-sharoitlarini quyidagicha belgiladik:

1. Tarbiyachi-pedagoglarning zamonaviy innovatsion ta'lim jarayoniga tayyorgarlik darajasi.

2. Integratsion ta'lim bo'yicha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasi holati.

3. Integratsion ta'limni tashkil etishda tarbiyalanuvchilar faolligini oshirish.

4. Integratsion ta'limni tashkil etishda bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'kalamzorlashtirilgan yer maydonchasi, ekinzor va guruh xonasida tabiat burchaklari mavjud bo'lgan hollarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin bo'ladi. To'rt yoshga qadam qo'ygan bolalar daraxtlarni tashqi ko'rinishiga ko'ra bir-biridan keskin farqlovchi turlari (tut, terak..) bilan tanishtiriladi.

“Fan va tabiat” markazida oddiy tuzilishdagi (poya, barg, gul) gullovchi yirik bargli xona o'simliklari, akvariumda baliq, qafasda qush qo'yiladi. Bu gurhda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning mavzulari mashg'ulotdan tashqari ishlar, tabiatdagi mavsumiy hodisalar xususiyatlari bilan bog'lanadi.

Bolalarning aniq hissiy taassurot olishlari uchun mo'lajallangan yer maydonchasi va tabiat burchagidagi jonivorlar, o'simliklarni kuzatishlar-mashg'ulotlarning sermazmun asos sifatida o'tishga xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir bolaga kerakli buyum bilan mufassal yordam beruvchi o'yinchoq, surat, tabiiy materialdan keng foydalanish lozim. Tarbiyachi bolalarni sabzavot va mevalar bilan tanishtirish bo'yicha bir necha mashg'ulotlar o'tkazadi.

Kichkintoylarda bodring, sabzi, pomidor, sholg'om olm aning shakli, rangi ta'miga ko'ra farqlash, ushlab ko'rib tanishish ko'nikmasi tarbiyalanadi. Tarbiyachi bolalarga meva va sabzavotlar haqidagi savollar bilan murojaat qiladi. “ Bu qaysi meva? ”, “Rangi qanaka? ”, “ Nomi nima?» kabi savollar beradi. Bolalar meva va sabzavotlarni ushlab ko'radilar. Bir-birini farqlashga o'rganadilar. Qish faslida ham bolalarning tabiat haqidagi bilimlari oshirib boriladi. Ayniqsa qor yoqqan paytda oppoq qor bilan tanishtiriladi. Qorli daraxtlar obrazli qilib tushuntirib beriladi. Bolalarni shu tasvirdan foydalanib “ Qorli daraxt ” rasmini chizishga o'rgatiladi. “ San'at ” markazida tashkil etilgan bu faoliyat turi ham bolalar uchun juda qiziqarli va qorli tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida ta'limning turli xil metodlaridan foydalanishadi. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir. Metodlar ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyati va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim metodlari o'quv material mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liqdir. Ta'lim metodlari psixologik, pedagogik, metodik asosga ega. Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Fan va tabiatshunoslik/ekologiya mashg'ulotlarida paremik janrlar vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida tarbiyachiga quyidagi metod va usullardan foydalanishni tavsiya qilamiz.

1. Vizual metodlar (kuzatish metodi, namunani ko'rsatish, kinofilm va diafilmlardan foydalanish, tevarak-atrof bilan tanishtirishga oid didaktik qo'llanmalar).

2. Og'zaki metodlar (topishmoq, maqol, aforizmlardan foydalanish, o'qish, suhbat).

3. Amaliy metodlar (mashq qilish, tajribalar o'tkazish).

4. O'yin metodi (didaktik o'yinlar, qoidali o'yinlar, ijodiy o'yinlar, epizodik o'yin usullari (topishmoqlar, taqlid mashqlari, topshiriqlarni bajarish oralig'idagi o'yin harakatlari). Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi **"Tabiat va biz"** mualliflik dasturi ishlab chiqildi. Dasturdan foydalanish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilariga metodik tavsiyalar berildi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan **"Tabiat va biz"** mualliflik dasturi asosan bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda yaqindan yordam beruvchi bir qator innovatsion texnologiyalar bilan boyitilganligidir. (3-rasmga qarang).



3.2.2-rasm. Tabiat bilan tanishtirish texnologiyasi bosqichlari

Ushbu bosqichlardan shu jihat ma'lum bo'ldiki, har bir guruh uchun tavsiya etilayotgan mazkur texnologiya bosqichlari tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanishtirish imkonini berish bilan birga qadriyatli yondashuv tamoyillariga asoslanganligining yorqin isbotidir.

Pedagog-tarbiyachilar uchun seminar asosan, mashg'ulotlarni interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishni o'rgatishga bag'ishlandi. Quyida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan tajriba- mashg'ulotlardan namuna keltiramiz:

5-6 yoshli bolalar bilan " Tabiat omborxonasi " mavzusidagi mashg'ulot " Chap va o'ng " texnologiyasi asosida olib borildi.

Ta'limiy maqsad –meva va sabzavotlarning yetishtirilishi va vitamininga boyligi to'g'risida ma'lumot berish, paremik janrlardan o'rinli foydalanish

Tarbiyaviy maqsad –tabiat ne’matlarini isrof qilmaslik va tejamli foydalanish madaniyatni tarbiyalash

Rivojlantiruvchi maqsad -bolalarda tabiat ne’matlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish, aqliy bilimlarini rivojlantirishdan iborat.

Kerakli jihozlar: meva va sabzavotlar (mulyajlari ham bo‘lishi mumkin), meva savatlari, magnitli doska, meva va sabzavotlar rasmi

Mashg‘ulotning borishi:

1-qadam. Tarbiyachi bolalar bilan kirish suhbatini tashkil qiladi.

2-qadam. Tarbiyachi bolalarga savol beradi.

Hozir qaysi fasl?

Kuz faslida qaysi bayramni nishonlaymiz ?









Qanday mevalar pishib yetiladi?


Qaysi sabzavotlar nomini bilasiz?

Bog‘chamiz omborxonasida nimalarni ko‘rib keldik ? (mashg‘ulotga qadar omborxonaga sayohat uyushtiriladi)

Izoh: qiynalgan bolalarga savollarga javob berish uchun yo‘naltiruvchi javoblar tomonga diqqatlarini qaratadi.

3-qadam. Endi bolajonlar stol ustiga qo‘yilgan sabzavotlarni chap tomonga, mevalarni o‘ng tomonga yopishtirib chiqamiz.

Chap tomon (sabzavotlar)	O‘ng tomon (mevalar)
	
	
	
	



4-qadam. Tarbiyachi, bolajonlar biz sizlar bilan “ Tabiat omborxonasi»ni hosil qildik.

Bu meva va sabzaotlar haqida kim topishmoq, maqol biladi?

5-qadam. Bolajonlar birin- ketin topishmoq ayta boshlaydilar:

5-qadam. Tarbiyachi, bolajonlar topishmoq va maqollarni yaxshi bilar ekansizlar. Barakallo!

Hozir sizlar bilan mevalarni birgalikda baham ko‘ramiz-deb bolalarni xursand qiladi.

6-qadam. Tarbiyachi: ushbu meva va sabzavotlar vitamininga boy mahsulotlardir. Bularni doimo yuvib iste’mol qilsak sog‘lom bo‘lib ulg‘ayamiz.

Ushbu texnologiya orqali tarbiyachi-pedagoglar tarbiyalanuvchilarda tabiatga munosabat bildirish, qiziqish uyg‘otish bilan bir qatorda, olingan ma’lumotlarni mustahkamlashga, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga, tabiat boyliklarini asrashga, ehtiyotkorona munosabatga bo‘lishga, eng muhimi ekologik dunyoqarashni shakllantirib, ular ongida “ madaniyat»tushunchasi singdirilishiga erishiladi.

